

ABDULLA QAHHOR IJODINI O‘RGANISHDA LINGVOPOETIK TAHLILNING AHAMIYATI. (“ANOR” HIKOYASI MISOLIDA)

Nigora Imomqulova Tashniyozovna

CHDPU magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20488570>

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada Abdulla Qahhor ijodini o‘rganishda lingvopoetik tahlilning ahamiyati “Anor” hikoyasi misolida yoritiladi. Tadqiqot jarayonida hikoyaning lingvistik va poetik xususiyatlari, xususan, metafora, metonimiya, sinekdoxa, undalma, frazeologizm, sinonim, shevaga xos birliklar hamda ekspressiv-stilistik vositalarning matn tarkibidagi funksional vazifalari tahlil qilinadi. Shuningdek, asarda fonetik, leksik, morfologik va sintaktik birliklarning badiiy-estetik mazmuni yuzaga chiqarishdagi o‘rni ochib beriladi. Maqolada lingvopoetik yondashuv orqali qahramon ruhiyati, ijtimoiy muhit, drammatizm va poetik obrazlarning ifodalanish usullari ilmiy jihatdan asoslanadi. “Anor” hikoyasi misolida Abdulla Qahhorning individual uslubi, realistik tasvir vositalari va milliy nutq madaniyatiga xos poetik xususiyatlari lingvopoetik tahlil asosida tadqiq etiladi.

KALIT SO‘ZLAR: Abdulla Qahhor, Anor, lingvopoetika, lingvopoetik tahlil, badiiy matn, poetik obraz, metafora, metonimiya, frazeologizm, ekspressivlik, stilistik vositalar, undalma, realistik tasvir, poetik tahlil, diskursiv xususiyat.

ЗНАЧЕНИЕ ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКОГО АНАЛИЗА В ИЗУЧЕНИИ ТВОРЧЕСТВА АБДУЛЛЫ КАХХАРА (НА ПРИМЕРЕ РАССКАЗА «ГРАНАТ»)

Нигора Имомкулова Ташниязовна

Магистрант ЧГУ

АННОТАЦИЯ: В данной статье рассматривается значение лингвопоэтического анализа в изучении творчества Abdulla Qahhor на примере рассказа Anor. В процессе исследования анализируются лингвистические и поэтические особенности рассказа, в частности функциональные задачи метафоры, метонимии, синекдохи, обращения, фразеологизмов, синонимов, диалектных единиц, а также экспрессивно-стилистических средств в структуре текста. Кроме того, раскрывается роль фонетических, лексических, морфологических и синтаксических единиц в формировании художественно-эстетического содержания произведения. В статье научно обосновываются способы выражения внутреннего мира героя, социальной среды, драматизма и поэтических образов посредством лингвопоэтического подхода. На примере рассказа «Гранат» исследуются индивидуальный стиль Абдуллы Каххара, средства реалистического изображения и поэтические особенности, характерные для национальной речевой культуры, на основе лингвопоэтического анализа.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Abdulla Qahhor, лингвопоэтика, лингвопоэтический анализ, художественный текст, поэтический образ, метафора, метонимия, фразеологизм, экспрессивность, стилистические средства, обращение, реалистическое изображение, поэтический анализ, дискурсивная особенность.

THE IMPORTANCE OF LINGUO-POETIC ANALYSIS IN THE STUDY OF ABDULLA QAHHOR'S WORKS (ON THE EXAMPLE OF THE STORY “POMEGRANATE”)

Nigora Imomqulova Tashniyozovna

Master's student of CHDPU

ABSTRACT: This article examines the importance of linguo-poetic analysis in the study of the works of Abdulla Qahhor on the example of the story Anor. During the research process, the linguistic and poetic features of the story are analyzed, particularly the functional roles of metaphor, metonymy, synecdoche, forms of address, phraseological units, synonyms, dialectal units, and expressive-stylistic devices within the structure of the text. In addition, the role of phonetic, lexical, morphological, and syntactic units in revealing the artistic and aesthetic content of the work is highlighted. The article scientifically substantiates the methods of expressing the character's psychology, social environment, dramatism, and poetic images through a linguo-poetic approach. Using the story “Pomegranate” as an example, Abdulla Qahhor's individual style, means of realistic depiction, and poetic features characteristic of national speech culture are studied on the basis of linguo-poetic analysis.

KEYWORDS: Abdulla Qahhor, linguo-poetics, linguo-poetic analysis, literary text, poetic image, metaphor, metonymy, phraseological unit, expressiveness, stylistic devices, form of address, realistic depiction, poetic analysis, discursive feature.

Kirish (introduction) Abdulla Qahhor hikoyalarida lingvopoetik tahlil usullari bevosita o'ziga xoslikni tashkil etadi. Unga ko'ra hikoyalarning til xususiyatlari va poetik jihatlarining bir ko'lamda tahlil qilinishi ahamiyatlidir. Lingvopoetika tushunchasi asosiy funksiyalarni yuzaga chiqarishda o'zbek va jahon adabiyotidagi lingvopoetik vositalar va badiiy vositalarni yuzaga chiqaruvchi omillar bilan amalga oshiriladi.

Tadqiqotning natijalari badiiy matnni tahlil qilishda lingvopoetik yondashuvning muhim ahamiyat kasb etishini obrazlilik, ko'chim turlari, stilistik jihatdan va estetik funksiyalar vositasida tahlil usullari bilan amalga oshiriladi. Hikoya matnlarida tilning eng muhim va mukammal ko'rinishlariga ega bo'lgan so'z shakllari, ularning matn tarkibidagi vazifasi, axborot berish shakllari, stilistik ta'sir va effekt nuqtayi nazaridan uslubiyat ham bu metodga xosdir.

Tadqiqot metodologiyasi (Methods) Mazkur tadqiqot Lingvopoetika nazariyalariga tayangan holda amalga oshirildi. Tadqiqotning metodologik asosini O. Axmanova va V. Zadornovanning “*On Linguopoetic Stratification of Literary Text*” nomli tadqiqotidagi badiiy matnning lingvopoetik qatlamlari haqidagi qarashlar tashkil etdi. Lingvopoetikaning til va adabiyot mushtarakligi sifatidagi xususiyatlarini yoritishda N. Musulmanovanning “*Lingvopoetika – til va adabiyot mushtarakligi*” maqolasidan foydalanildi.

Badiiy matn va personaj nutqi munosabatlarini tahlil qilishda Z.B. Yeshmambetovanning “*Сотношение авторской речи и речи персонажа как лингвопоэтическая проблема*” hamda N. Xo'jayevning “*Abdulla Oripov she'riyatidagi personaj nutqining gender xususiyatlari*” nomli ilmiy qarashlariga murojaat qilindi. Badiiy asar tilining estetik funksiyalarini aniqlashda esa V.V. Vinogradovning “*Язык художественного произведения*” tadqiqoti metodologik asos bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqot jarayonida tavsifiy, lingvostilistik, semantik, kontekstual hamda pragmatik tahlil metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodlar asosida Abdulla Qahhorning Anor hikoyasidagi metafora, metonimiya, frazeologizm, undalma, shevaga xos birliklar va ekspressiv-stilistik vositalarning badiiy-estetik funksiyalari tahlil qilindi.

Natijalar (Results) Lingvopoetikada til birliklarining badiiy asar funksiyasi, ularning obraz yaratayotgan estetik ta’sir kuchi bilan aloqadordir. Matn tarkibidagi leksik, grammatik va stilistik qatlamlar chuqur tahlil va ularning ma’lum maqsad, vazifalar asosida qo’llanilganligini yuzaga keltiradi. Abdulla Qahhor shaxsiyatining so’z qo’llash mahorati lingvopoetik tahlil asosida badiiy asarning ilmiy tushunilishi va xalq ommasiga yetib borishida o’ziga xos debocha vazifasini bajaradi. Badiiy matnlar til birliklarining obrazli va ekspressiv funksiyalarini ochib berish jihatidan muhimdir. Tahlil jarayonida *M. Yo’ldoshevning fikrlariga tayangan holda quyidagi jihatlarga amal qilish lozim:*

1. *Shakl va mazmunning o’ziga xos mutanosibligini yondashuv va aloqalar bilan matn tarkibida ko’rsatish;*
2. *Makon va zamon tushunchasining ifodaviylik xususiyatida qaysi so’zlar vositasida yuzaga kelishini tahlil etish;*
3. *Umumxalq tili va adabiyotining umumijtimoiy munosabatlarini shakllantirish;*
4. *Badiiy-estetik kategoriyalarning qaysi janr xususiyatiga ko’ra estetik yaxlitlik sifatida o’rganish;*
5. *Badiiy matnlarda poetik aktuallashgan til vositalarini aniqlash;*
6. *Ijtimoiy davr va jamiyat muhitini yaratishda qo’llanilayotgan sheva va shevaga xos so’z elementlarini aniqlash;*
7. *Matn tarkibidagi eksplitsitlik va implitsitlik nisbatlarining to’g’ri tanlanishi.*

Badiiy matnlarda intertekstuallik mexanizmlarining lisoniy va semantik munosabatlarini tahlil qilishga qaratiladi. Abdulla Qahhor hikoyalarining mavzulari xilma-xillikka ega. Shunga ko’ra ularni tahlil qilishda intertekstuallikka asoslangan metodlar ham matn bilan ishlash tushunchasini yuzaga keltiradi. Bunda matnlarda qo’llangan undalmalar, kirish so’zlar, bog’lovchilar va ko’makchilar ham tahlil jarayoniga tortiladi. Matnning umumiy ma’nosi va uslubidan kelib chiqqan holatda stilistik tahlil etiladi.

Abdulla Qahhorning “Anor” deb nomlanadigan hikoyasi lingvistik va poetik jihatdan tahlil uchun qulay hisoblanadi. Hikoya tarkibida ko’chim turlaridan metafora bevosita qo’llanganligini ko’rish mumkin. “*Yuragimni qon qilib yuborasan*” jumlasida yurakning haqiqatdan qon bo’lmasligi, buni qattiq iztirob bilan izohlash mumkin. “*Jigarlaring ezilib ketsin*” nomli fikrlar orqali esa metafora amalga oshirilgan. Bunda jigar ezilishi emas, qattiq dard, iztirob ma’nosida so’z qo’llanmoqda. “*Ko’ngli tortmasligiga qaramasdan*” jumalari orqali ko’ngilning tortilishi emas, bu yerda xohishning bor yoki yo’qligi haqida fikr berilmoqda.

Ko’chim turlaridan metonimiyaning bevosita nutq va matn bilan o’zaro aloqadorlikda kelganini guvohi bo’lish mumkin. “*Butun zal kuldi*”, “*Ko’cha eshigi ochib yopildi*”, “*Qozonning zangi chiqib qorayib ketgan*” kabi jumalarda metonimiyani sezish mumkin. Shuningdek, sinekdoxa, vazifadoshlik, kinoya kabi boshqa jihatlar ham mavjud.

Abdulla Qahhor qalamiga mansub “Anor” hikoyasining ilmiy lingvistik nuqtayi nazardan kontekst va mexanizmga asoslangan fikr va mulohazalar yoritilgan. Tahlil jarayonida mexanizmning semantik transfer, ya’ni o’xshashlik vositasida ifodalanishini “qon qilish” va “ruhiy iztirob” intensivligi bilan izohlash mumkin. Kognitiv modelning emotsiya va jismoniy jarohat so’zlari bilan uyg’unlashuviga guvoh bo’lamiz. Denotativ ma’noni “*yurakdan qon oqishi*” jumlasini bilan, konnotativ ma’noni esa kuchli ruhiy og’riq bilan tasvirlash mumkin. Ushbu lingvistik tahlil jarayonida emotsional ekspressivlikka ega qahramon ichki holatini izohlash va nutqda drammatizmning ta’sirini sezsa bo’ladi.

Shuningdek, matn tarkibida qo'llaniluvchi iboralar, jumlar ekspressivlik funksiyasini ham yuzaga keltiradi. Bunda hissiy kuchni oshirishda kinoya va aksariyat holatlarda metafora amalga oshiriladi. Lingvistik tahlil jarayonida undalmalarning ham ifodalanishiga guvoh bo'lamiz. Misol uchun murojaat shakllaridan *“akajon”* so'zida morfologik tuzilish jihatdan *“aka + jon”*, ya'ni erkalatish qo'shimchasi, yaqinlik affiksi qo'shilgan. Sintaktik o'rin jihatidan gapning boshida, mustaqil komponent sifatida ifodalanganini, intonatsiyaning esa chaqiriq, buyruq ohang vazifasini bajariganligini ko'rish mumkin. Shuningdek, *“vazifaviylik jihatidan suhbatdoshning e'tiborini tortish, nutqqa yaqinlik va samimiylilik asosiga qurilgan dialoglarni yuzaga keltiradi”*. [1] *“Akajon”, “jon aka”* ushbu so'zning lingvistik tahlil jihatidan *“jon”* so'zining qo'shilishida fonetik ekspressivlikning vositasi sifatida qo'llangan.

“Yo qudratingdan, ishonmaydi-ya” jumlasida lingvistik tahlilda mexanizmning diniy leksik birlik orqali murojaat shakliga guvoh bo'lasiz. Undalmaning *“qudratingdan”* aslida Allohga nisbatan murojaat sezilib turadi. Sintaktik o'rin jihatidan kirish, undalma, undov bilan bog'langan so'z hisoblanadi. Milliy nutq madaniyatiga xos bo'lgan ekspressivlik ushbu gapda subyektiv bahoni kuchaytirishga xizmat qiladi. Hayrat, ajablanish va norozilikka xos so'zlar mavjuddir.

“E hoy, anor olib kela bermadimmi?” gapida *“hoy”* bu undalma sanaladi. Oddiy undalmaning chaqiriq, ba'zan dag'allik asosida qo'llanganiga guvoh bo'lamiz. Sintaktik jihatdan gap boshida undov bilan birga keladi. Salbiy emotsiyaning, ya'ni jahldorlikni ifodalashga xizmat qilib kelmoqda. Shuningdek, undalmalarning appelyativ murojaat funksiyasini bajarishi ko'zga tashlanadi. *“Suhbatdoshning e'tiborini jalb qilish maqsadida ekspressiv funksiyalardan, ya'ni hissiy holatni ijro etishda iltijo, g'azab, hayrat kabi ifodaviylik xususiyatlarini sezish mumkin”*. [2] Pragmatik xususiyatning nutqqa xos bo'lgan yaqinlik, ustunlik asosida amalga oshirilishi Abdulla Qahhor ijodiyotining o'ziga xosligidir. Diskursiv funksiyasi esa dialogni boshqarish va rivojlantirishga xizmat qilib kelmoqda.

Muhokama (Discussion) Ushbu asarda shevaga xos so'zlarning ifodalanishi *“innankeyin”* jumlasini bilan ifodalanadi. *“Adabiy tilda “keyin” so'zining shevaga xos varianti sifatida “innan keyin” ishlatiladi. Fonetik o'zgarishning ortiqcha bo'g'in qo'shilishi, ya'ni protezis orqali amalga oshirilganligini ko'ramiz. Misol uchun: qahramon nutqining hududiy xususiyatini ochib berishga xizmat qiladi”*. [3] Realistik tasvirni yanayam kuchaytirib beradi. Ijtimoiy kelib chiqishining ifodalanishiga yordam beradi.

Og'zaki nutq elementlari *“ha muncha turtmasdan gapira bering”* jumlasini bilan ifodalagan. Ushbu misol orqali to'liq grammatik shaklda bo'lmagan elliptik, ya'ni og'zaki nutqqa, qisqartirish va soddalashtirishga xos bo'lgan misollarni kuzatish mumkin. Bunda dialoglarning samimiy va tabiiylashtirilgan holatda jonli so'zlashuv muhitini yaratilganligiga guvoh bo'lamiz. Qahramonlar o'rtasida real muloqotni aks ettiradi.

Abdulla Qahhorning *“Anor”* nomli hikoyasida frazeologizmlar, ya'ni barqaror birikmalar ham muhim ahamiyat kasb etadi. *“Ko'ngli tortmaslik”* iborasi ushbu matn tarkibida erkin butunlik asosidagi ma'noga asoslangan. Denotativ jihatdan idiomatik ma'no, ya'ni xohlamaslikni ifodalaydi. *“Ko'ngli tortmaslik”* iborasining ushbu matndagi vazifasi esa nutqni obrazli qilish, psixologik ifodaviy xususiyatni yaratish, milliy tafakkurning modelini aks ettirishda yordam beradi. Abdulla Qahhor ijodiga mansub *“Anor”* nomli hikoyada reduplikatsiya va intensivlik ham mavjuddir. *“Jon aka”* misolida unlining cho'zilishi fonetik takrorlarning amalga oshirilishini, emotsional intensivlikni yuzaga keltiradi. Bu esa kuchli hissiyot, iltijo, ba'zi o'rinlarda erkalatishni bildiradi. Nutqqa ekspressivlik qo'shadi, qahramonning ichki kechinmasini izohlaydi.

So‘zlashuv uslubiga xos qo‘pol leksik birliklar ham mavjud. *“Yer yutkur, qanday balo ekan”*. Ushbu jumlada *“yer yutkur”* so‘zi qarg‘ish ekspressiv birlikka asoslangan pragmatik jihatdan salbiy emotsiyani ifodalovchi vosita. Vazifasining esa konfliktni kuchaytirish, qahramonning ruhiy zo‘riqishlarini ko‘rsatadi. Milliy nutq madaniyatidagi affektiv qatlamni izohlaydi. Shuningdek, so‘zlashuv uslubi elementlarining muloqotlar bilan ifodalanishida shevaga xos birliklarning ifodalanishi vositasida realizm ham yuzaga keladi. Frazeologik boylukning so‘zlar bilan ifodalanishi ekspressiv vositalar, ya‘ni takror, qarg‘ish, undovlar bilan birlashadi. Abdulla Qahhorning ushbu hikoyasida sinonim so‘zlar ham ko‘zga tashlanadi. *“Hovliqib kirmoq”* va *“chopmoq”* fe‘llari matnning kontekst jihatidan sinonimlik sifatida qarash mumkinligini ifodalaydi. Tez harakat qilish, hovliqish, chopish, ichki hayajon va jismoniy tezlik bilan amalga oshiriladi. Bu esa harakatning turli semantik nozikliklarini dinamik tasvir uslubi bilan yuzaga keltiradi.

“Yig‘lab yubordi” va *“yig‘ladi”* fe‘llari ham uslubiy jihatdan bir xil vazifani bajarmoqda. *“Yig‘ladi”* - bu neytral xususiyat, *“yig‘lab yubormoq”* esa kutilmagan, kuchli emotsiyaga boy xususiyatdir. Vazifaviy jihatdan psixologik holatning darajasini farqlaydi. Ekspressivlikni oshiradi. *“Qizardi”*, *“hijolat bo‘ldi”* so‘zlari ham kontekstual sinonim hisoblanadi. Bunda qizarishning fiziologik holat sifatida baholanishi, hijolat bo‘lishning esa ruhiy holat bilan ifodalanishini guvohi bo‘lish mumkin. Kontekstda bir-birini izohlash, to‘ldirish, boyitish, shuningdek, uyalish semasini ifodalaydi. Vazifaviylik jihatidan ichki kechinma chuqurroq amalga oshiriladi.

Matn tarkibida omonimlarning ham ifodalanishi yuzaga keladi. *“Bosh”* so‘zi *“boshini ko‘tardi”* va *“boshqorong‘u”* so‘zlarida bosh tana a‘zosi va tarkibiy qismlarga bo‘linmaydigan so‘z sanaladi. *“Boshqorong‘u”* so‘zida ham tarkibiy qismlarga bo‘linmaslik, mustaqil ma‘noni saqlash kuzatiladi. Ekspressiv stilistik vositalarning qarg‘ish, affektiv nutq bilan ifodalanishi ham ushbu asarga xos vosita sifatida ko‘zga tashlanadi. Metaforik stilistikaning obrazlar asosida ham ifodalanishini guvoh bo‘lish mumkin. Tasviriy stilistikaning detal orqali muhit yaratish uslublari ham ko‘zga tashlanadi. Poetik jihatdan markaziy poetik obraz sifatida bu anor predmet vazifasini bajargan. Tahlilda anor odatiy meva emas, ramziylik jihatdan simbolni anglatadi. U bir necha ma‘nolarda ham ifodalanishi mumkin. Dastlab orzu va ehtiyoj sifatida ayol uchun belgilanadi. Yetishmovchilik va kambag‘allikning ramzi sifatida ham yuzaga keladi. Oilaviy ziddiyatlarning sababi sifatida tahlilga tortiladi. Poetik jihatdan asarning semantik markazini belgilash va voqealar rivojida ko‘zga tashlanadi. Butun voqealar rivoji shu obraz vositasida shakllangan.

Poetik tahlil jihatidan Abdulla Qahhorning kontrast uslubidan, ya‘ni zid qo‘yish uslubidan foydalanganligini guvohi bo‘lamiz. Anor - bu orzu, asal esa reallikka xos tushunchalardir. *“Boylar bog‘i”* va *“kambag‘al hovlisi”* o‘ziga xos kontrast usulida shakllantirilgan. Ichki orzu va tashqi imkoniyat ham mana shunday holatni yuzaga keltirgan. Bu antitezaga asoslangan poetik qurilishni va zidlik orqali drammatizmni kuchaytirishga xizmat qiluvchi vositadir. Vazifaviy tomondan ijtimoiy tafovutni ochadi, qahramonlar fojiviy holatini kuchaytirishda yordam beradi. *“Psixologik jihatdan poetikaning bir qancha ko‘rinishlari mavjud. Misol uchun: “Chiroq pishillab yonar, osmonga qarab o‘tirar edi” kabi misollar mavjud. Tahliliy jihatdan tashqi muhit qahramon ichki holatiga moslashtirilgan tarzda ifodalanadi. Bu esa psixologik parallelizm asosida shakllangan”*.^[4] Vazifaviy tomondan ruhiy holatni bevosita aytmasdan ko‘rsatadi, lirik kayfiyat yaratadi.

Detal poetikasining badiiy detallar bilan ifodalanganiga guvoh bo‘lish mumkin. *“Qoraygan guja”*, *“yirtiq yeng”*, *“chala tuyilgan juxori”* kabi so‘zlar buning misolidir. Har bir detal ijtimoiy ma‘no yuklaydi. Kambag‘allik bevosita emas, detal orqali izohlab beriladi. Ushbu holatda reallik va realistik xususiyatning ta‘sirchanlik xususiyati shakllangan, o‘quvchini voqea ichiga olib kirishga

undaydi. Nutq poetikasining dialog va ichki drammatizm asosida shakllanishiga guvoh bo'lish mumkin. Misol uchun: *“Ajab qildim, anor olmay asal oldim”* kabi misollarni keltirish mumkin. Dialoglar oddiy emas, ichki konfliktning bevosita shakllanishi bilan bog'liqdir. Har bir replika psixologik yuklangan birlikdir. Vazifaviy tomondan qahramon xarakterini izohlaydi, dramatik keskinlikni oshiradi.

Fonetik-stilistik xususiyatlarining *“Nima bu?”* nomli so'roq shakli bilan ifodalanishini ahamiyatlidir. Tovushlar orqali ma'no va kayfiyat yaratish uslubi aynan Abdulla Qahhorga xos hisoblanadi. Morfologik xususiyatlar ham ushbu asarda mavjud. Sintaktik qurilishning so'z shakllarida elliptik gaplar *“Ha muncha?”* misoli orqali va qisqa dialoglar bilan ham amalga oshirilishini guvohi bo'lish mumkin. Diskurs, ya'ni nutqning tahliliy jihatdan er-xotin muloqoti konfliktga qurilgan dialoglar bilan izohlangan. Fonetik jihatdan tahlil qilganda *“Qozonning zangi chiqib qoraygan guja”* nomli misoldagi *“q”* va *“g”* undoshlari takrori — alliteratsiya. *“Qozon”, “qoraygan”, “guja”* kabi so'zlar tovush jihatidan og'ir, qorong'u kabi hisni ifodalashda yordam beradi. Vazifaviy jihatdan og'ir hayotning ifodalanishi, kambag'allik kayfiyatining fonetik yo'l bilan kuchaytirilishi Abdulla Qahhor tasvir uslubiga xosdir. Tasvirni eshitiladigan obrazga aylantirishga yordam beradi.

“Ko'cha eshigi ochilib yopildi” nomli gapda *“o”* unlisining ketma-ketligi ritmik yumshoqlik, harakatning uzluksizligi fonetik ritm orqali beriladi. Bunda ritmik sezgi asosiy xususiyat kasb etadi. Leksik - so'z tanlash jihatidan *“Sahargacha suv tashish”* misolida sahargacha - bu vaqtning leksik birligi, uzoq mehnat semasini ifodalaydi. Suv tashish esa og'ir mehnat ma'nolarini o'zida yuklaydi. Vazifaviy jihatdan ijtimoiy qatlam kambag'allikni leksik darajada izohlaydi, realistik muhit yaratiladi. Tog'oracha, kelisop kabi so'zlari orqali dialektal va xalqona leksikalardan foydalanganligiga guvoh bo'lamiz. Maishiy hayotga xos predmet nomlari ham ushbu asarda ko'p qo'llaniladi. Etnografik qatlamga xos bo'lgan hayot detallarini sezish mumkin. Morfologik jihatdan *“Chaynalayotgan”, “Yig'ishtirib oldi”* nomli jumlar e'tiborni tortadi. *“-ayotgan”* qo'shimchasi orqali davomli zamon, ya'ni zamon progressiv aspekt, yig'ishtirib olmoq so'zi bilan esa qo'shma fe'l va yakunlilik vazifalari yuklanadi. Harakatning davomiyligi va tugallanishini farqlaydi, vaqt dinamikasini ko'rsatib beradi. *“Bo'shashib ketdi”* nomli gapda esa bo'shashmoq va *“-ib”* qo'shimchasi va ketmoq so'zlari orqali konstruksiya hosil qilingan. Morfologik jihatdan intensivlik va to'satdanlik vazifasi yuzaga keladi, ruhiy holatning keskin o'zgarishini bildiradi.

“Ko'tarilayotgan”, “qarayotgan” misollari orqali sifatdosh shaklining -ayotgan harakatning davomiyligini ifodalaydi. Vazifaviylik jihatdan tasvirni statik emas, dinamik tarzda ifodalaydi. Sintaktik tahlilning *“Xotin yengini tishlab bir nuqtaga qaraganicha qoldi”* nomli misol bilan ifodalash mumkin. Murakkab sodda gap jihatdan hol, kesim, aniqlovchi bir butunlikni yuzaga keltirgan. Harakat emas, holat tasviri ustunlik qiladi. Psixologik sukutni kuchaytiradi, ichki kechinmalarni tashqi harakat orqali ifodalaydi. *“Turobjon tugunchani berdi”* misolida oddiy yoyiq sodda gap qo'llanilgan. Subyekt, obyekt va fe'l tartibi ifodalanadi. Vazifaviylik jihatdan nutqni soddalashtiradi, hikoya ritmini tezlashtiradi.

“Bir choyshab anor har tomonga yumalab ketdi” misollari orqali hol, ega va kesim tartibi dinamik sintaktik qurilishga asoslangan. *“Har tomonga”* so'zi orqali makonning kengligi ifodalanadi. Voqeaning drammatizm bilan ifodalanishi, harakatning vizual ifodalanishini ko'rish mumkin. Gap tarkibida inversion, ya'ni so'z tarkibining o'zgarishi kuzatiladi. Asar tarkibida ekspozitsiyaning Turobjonning uyga shoshishi, xotinning juxori tuyish holati va oddiy maishiy hayot tasviri bilan ifodalangani o'ziga xosdir. *“Bunda qahramonlarning muhit bilan ifodalanishi, kambag'allik va oilaviy hayotning fon tasvirida berilishini sezish mumkin. Abdulla Qahhor realistik*

fon yaratishga harakat qilgan”.[5] Voqealar rivoji bilan birgalikda konfliktning boshlanishi Turobjonning tugunchani olib kelib, asal haqidagi gapirishi bilan boshlanadi. Asal - anor o‘rniga keltirilgan obyekt vazifasini bajaradi. Xotinning noroziligi mana shunday voqelik bilan amalga oshirilgan. Ichki ziddiyatning paydo bo‘lishi anorning orzu bilan, asalning reallik bilan to‘qnashishi psixologik tugun bilan ifodalangan. Voqealar rivojining er-xotin bahsi, anor masalasining qayta-qayta tilga olinishi, iqtisodiy norozilik, kambag‘allik tasvirida ifodalangan. Bunda muloqotlarning keskinlashuvi, emotsiyaning ifodaviy xususiyatlari, ayblash va o‘zini oqlash kabi tushunchalar bilan ifodalangan.

Kulminatsiyaning ifodalanishi er-xotin o‘rtasida konflikt bilan ham amalga oshadi. Yechim sifatida Turobjonning anorlarni olib kelishi, uyga qaytib jimlik va og‘ir ruhiy holat tasvirini sezish mumkin. Muammoning to‘liq tarzda hal bo‘lmagani, balki ramziy yopilishida anor kompensatsiyaga asoslangan. Bunda real emas, emotsional va ramziy yechim ifodalangan. *“Umumiy poetik xulosa jihatidan asarning shakllanishi an’anaviylikka asoslangan va dramatik xususiyatlarni realistik hikoya bilan singdirishga harakat qilingan*”.[6] Eng muhim poetik xususiyat esa hikoyaning maishiy konflikt, psixologik drama, tashqi voqeliklar va ichki ziddiyat kesimlarida shakllanadi.

Xulosa (Conclusion) Mazkur tadqiqotda lingvopoetikaning nazariy-metodologik tamoyillari asosida Abdulla Qahhorning “Anor” hikoyasi lingvopoetik jihatdan tahlil qilindi. Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, asarda metafora, metonimiya, sinekdoxa, frazeologizmlar, undalmalar, sinonimlar, shevaga xos birliklar hamda ekspressiv-stilistik vositalar badiiy mazmuni shakllantirishda muhim funksional vazifa bajaradi.

Shuningdek, hikoya tarkibidagi fonetik, leksik, morfologik va sintaktik birliklar qahramonlarning ichki kechinmalarini ifodalash, dramatik holatni kuchaytirish hamda realistik muhitni yaratishda faol ishtirok etishi aniqlandi. Tahlil natijalari personaj nutqi, dialogik qurilmalar va diskursiv xususiyatlar orqali asarda psixologik konflikt va ijtimoiy ziddiyatlar chuqur yoritilganini tasdiqlaydi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. M.Yo‘ldoshev. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili-” Fan”, 2007
2. Шмуль И.А. Лингвопоэтическая стратификация художественных текстов и изучение индивидуального авторского стиля: На материале произведений Шекспира. Автореф.кандидат фил.наук. –М. 2001. –С.3
3. Matyakupov S. She’riyatda dialog yaratish mahorati. –T.:“Muharrir” 2013.
4. Rasulov S. “Badiiy matn va uning poetik strukturalari” – Toshkent: Ma’naviyat, 2021.
5. Qo‘chqarov A. “Zamonaviy adabiy tahlil usullari” – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020.
6. Muhammadjonova G. Badiiy asar tahlili-Adabiyot uchqunlari”, 2018